



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 310 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutSIONal asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in Uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	
Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash	265
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna	
Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана.....	272
Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна	
O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari.....	280
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	



Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики.....	288
Абдуллаев Абдурауф	
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari.....	299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva	



DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARINING STRATEGIK REJALARINI ISHLAB CHIQUISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI



Dilshod Pulatov

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti direktorining birinchi o'rinbosari, i.f.d., professor

Email: Dilshod.Pulatov@ifs.imv.uz;



Xamidaxon Akbarova

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti, Budjet siyosati va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish loyihasi bosh mutaxassisi

Email: hamidaakbarova1201@gmail.com; тел:

ORCID iD: 0009-0002-0592-5312



Dildora Mirzaeva

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti, Budjet siyosati va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish loyihasi bosh mutaxassisi

Email: dildoramirzaeva71@gmail.com;

ORCID iD: 0009-0008-8329-330X

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat boshqaruvi organlari tomonidan strategik rejalarni ishlab chiqish jarayoni bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqot Kanada, Fransiya, Avstraliya, Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) va Qozog'iston Respublikasi kabi davlatlardagi strategik rejalashtirish tizimlariga qiyosiy yondashuv asosida baho berishga qaratilgan. Ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari (IMF, OECD) va rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ushbu maqola natijalari O'zbekistonda strategik rejalashtirishni takomillashtirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali mexanizmlar va uslubiy yondashuvlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalari, strategik rejalashtirish, strategik maqsadlar, maqsadli ko'rsatkichlar.

Abstract: This article analyzes the experience of foreign countries in the development of strategic plans by public administration bodies. The research focuses on a comparative evaluation of strategic planning systems in countries such as Canada, France, Australia, the Republic of South Africa (RSA), and the Republic of Kazakhstan. Scientific sources, recommendations of international organizations (IMF, OECD), and official legal documents were reviewed. The findings of this article serve to identify effective mechanisms and methodological approaches that can be applied to improve strategic planning in Uzbekistan.

Key words: strategic plans of public administration bodies, strategic planning, strategic goals, performance indicators.



Аннотация: В статье представлен анализ опыта зарубежных стран по разработке стратегических планов органами государственного управления. Исследование направлено на сравнительную оценку систем стратегического планирования в таких странах, как Канада, Франция, Австралия, Южно-Африканская Республика (ЮАР) и Республика Казахстан. Проанализированы научные источники, рекомендации международных организаций (МВФ, ОЭСР) и официальные нормативно-правовые документы. Результаты статьи направлены на выявление эффективных механизмов и методологических подходов, которые могут быть применимы для совершенствования стратегического планирования в Узбекистане.

Ключевые слова: стратегические планы органов государственного управления, стратегическое планирование, стратегические цели, целевые показатели.

KIRISH

Bugungi kunda ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini strategik rejalashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Vazirlik yoki idoraning samarali strategik rejasi nafaqat ustuvor maqsad va vazifalarni belgilaydi, balki aniq ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga yo'naltirilgan budjet resurslarini oqilona taqsimlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining natijadorligi va samaradorligini oshirish zarurati bilan belgilanadi. Mamlakatda olib borilayotgan dasturiy budjetlashtirish islohotlari doirasida vazirlik va idoralarning strategik rejalar tizimini joriy etish maqsadlar, dasturlar va budjet mablag'lari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashda muhim bo'g'in hisoblanadi. Mamlakatimizda strategik rejalashtirishni takomillashtirish uchun xalqaro tajribani o'rganish maqsadga muvofiq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda dunyoda xususiy va davlat sektoridagi deyarli barcha tashkilotlar u yoki bu tarzda strategik rejalashtirishdan samaradorlik va rivojlanish vositasi sifatida foydalanmoqda (Ieva Nartisa, Romans Putans, Tatjana Muravska, 2012[1]). Umuman olganda, Strategik rejalashtirish - bu tashkilot (yoki boshqa tuzilma) nima bilan shug'ullanishi va nega shuni bajarayotganini aniqlab beruvchi, chuqur o'ylangan va intizomli yondashuv asosida asosiy qarorlar va harakatlarni shakllantirish jarayonidir (John Bryson, Bert George, 2024[2]).

Muvaffaqiyatli strategik rejalashtirish xodimlar, boshqaruv a'zolari va tashqi manfaatdor tomonlar o'rtasida tashkilotning missiyasi va tashkiliy qadriyatlarini aniq tushunishga yordam beradi. Strategik rejalashtirish, shuningdek, mavjud ma'lumotlarga asoslangan harakatlar rejasi bo'lib, yutuqlarni kuzatish va natijalarni baholashni o'z ichiga oladi (Sultan Alateeg, 2017[3]).

Strategik rejalashtirishning dunyo bo'ylab keng ommalashishi tadqiqotchilarda ushbu sohadagi empirik tadqiqotlarga qiziqishni oshirmoqda. Xususan, davlat boshqaruvida strategik rejalashtirish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish bir qator tadqiqotlarga asoslanadi.

PEMPAL Strategik rejalashtirishga "hukumatning uzoq muddatli maqsadlari va ustuvorliklarini maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan tadbirlar, harakatlar ketma-ketligi va materiallarni batafsil bayon etadigan amaliy rejalariga aylantirishning tizimli jarayoni bo'lib, mavjud vaziyatni tahlil qilishni va kutilgan natijalarga erishishning muqobil usullarini ko'rib chiqishni o'z ichiga olishi kerak"-deb ta'rif bergan (PEMPAL, 2024[4]).

Jan-Erik Johanson va boshqalar tadqiqotida Finlandiya va Norvegiya mamlakatlarining markaziy davlat idoralarida strategik rejalashtirishni ishlab chiqish va amalga oshirish tahlil qilingan. Mualliflar har ikki mamlakatda ham majburiy strategik rejalashtirish mavjud bo'lsa-da, ikkala davlat ham davlat idoralarida markazlashmagan strategik rejalashtirishdan foydalanganligini aniqlagan (Jan-Erik Johans, Åge Johnsen, Elias Pekkola va Stephen Affleck Reid, 2019[5]).

Josef David Preciado davlat sektorida strategik rejalashtirish bo'yicha mavjud adabiyotlarni o'rganib, adabiyotlarda strategik rejada mavjud bo'lishi kerak bo'lgan to'rtta muhim element (muhit tahlili, aniq maqsadlar va natijalar, samaradorlik ko'rsatkichlari, qayta aloqa va fikr-mulohaza mexanizmi)ni aniqlagan. Uning fikriga ko'ra, aksariyat amaliy tadqiqotlar strategik rejani ishlab chiqish jarayoniga yoki asosiy manfaatdor tomonlarning strategik rejalashtirish jarayonidan qoniqish darajasiga qaratilgan (Josef David Preciado, 2015[6]).

Paul L. Flemming tadqiqotida strategik rejalashtirishning so'nggi 50 yildagi evolyusiyasini o'rgangan, asosiy modellarni solishtirgan va ularning davlat sektorida qo'llanilishini baholagan. Shuningdek, xususiy va davlat sektorida strategik qarorlar qabul qilish bilan bog'liq adabiyotlarni ko'rib chiqqan. Uning fikriga ko'ra,



davlat qarorlarini qabul qilish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan strategik rejalashtirish modellari uch bosqichda amalga oshirilsa, strategik rejalashtirish davlat tashkilotlarida samarali bo'ladi: ya'ni davlat siyosatini shakllantirishda; tashqi muhit omillarini tahlil qilishda; davlat tashkilotlari doirasidagi missiya, maqsad va vazifalarni muvofiqlashtirishda (Paul L. Flemming, 2014[7]).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot davlat boshqaruvi organlari tomonidan strategik rejalarni ishlab chiqish amaliyotini o'rganish va qiyosiy tahlil qilishga asoslangan. Tadqiqot doirasida Kanada, Fransiya, Avstraliya, Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) va Qozog'iston Respublikasi kabi davlatlarning rasmiy hujjatlari va xalqaro tashkilotlar (IMF, OECD) tavsiyalari asosida ma'lumotlar to'plandi. Tahlilda hujjatlar tahlili va qiyosiy yondashuv usullari qo'llanilib, strategik rejalashtirishning huquqiy asoslari o'rganildi. Tadqiqot natijalari strategik rejalashtirishning xalqaro tajribasini chuqur anglash va milliy amaliyotni takomillashtirishga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) va Evropa Ittifoqi (EU) qo'shma tashabbusiga ko'ra, bugungi kunda markaziy davlat boshqaruvi darajasida strategik rejalashtirish tizimi ikkita asosiy boshqaruv va budjet komponentlardan iborat. Boshqaruv, odatda, vakolatlar bayonnomasi, qarashlar, qadriyatlar, ichki va tashqi muhit tahlili, o'rta muddatli ustuvorliklar va faoliyat yo'nalishlari, monitoring va baholash, hisobdorlikdan iborat bo'lsa, budjet komponentining tarkibiy qismi joriy vaziyat tahlili, maqsadlar, budjet dasturlari, moliyalashtirish dasturlari natijalari va samaradorlik ko'rsatkichlaridan iborat. Davlat tashkilotining strategik rejasi markaziy davlat organlari faoliyatini o'rta muddatli rejalashtirishni ta'minlovchi boshqaruv va budjetni rejalashtirish hujjatidir. Bu muassasa vakolati ostidagi davlat siyosatiga taalluqli va u muassasa darajasida ilgari suriladigan siyosat, majburiyatlar va chora-tadbirlarning aniq tasvirini taqdim etadi, ammo bu davlat siyosati hujjati emas (Ieva Nartisa, Romans Putans, Tatjana Muravska, 2012[8]).

Vazirliklarning strategik rejasi tahlil, missiya, qarash va ustuvor yo'nalishlar, strategik maqsadlar, maqsadli ko'rsatkichlar, vazifalar va samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash jarayonlarini o'z ichiga olgan ikki asosiy bosqichdan iborat: 1. Tahlil bosqichi; 2. Rejalashtirish bosqichi[9].

Joriy vaziyatni tahlil qilish bosqichi (tashqi va ichki omillar) [10]. Mavjud vaziyatni tahlil qilish strategik tahlilni o'tkazishda zarur bo'lib, olingan ma'lumotlar asosida vazirlikning real holatiga baho beriladi. Mavjud vaziyatni tahlil qilish tashqi va ichki muhitlarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Rejalashtirish bosqichida tashkilot faoliyatining maqsadli ko'rsatkichlari balanslangan ko'rsatkichlar tizimi[11] ning 4 ta yo'nalishidan foydalangan holda ishlab chiqiladi. Ishlab chiqilayotgan strategik reja tashkilotning maqsadlarini shakllantirish orqali muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Xalqaro valyuta fondi (IMF) Strategik rejaning komponentlari deb quyidagilarni qayd etgan: Strategik baholash (Strategic assessment); Asosiy bayonotlar (uzoq muddatli istiqbolni ko'rish, missiya, asosiy qadriyatlar) (Foundation statements (vision, mission, core values)); Maqsad va vazifalar (Goals and objectives); Tashabbuslar (Initiatives); Resurs talablari (Resourcing requirements) Ishlash ko'rsatkichlari (Performance measures).

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida strategik rejaning tuzilishi xalqaro moliya tashkilotlarining tavsiyalari asosida yuqorida ko'rsatilgan tuzilma ko'rinishida amalga oshiriladi.

Xususan, Avstraliya federal boshqaruv tizimida davlat organlarining samaradorligini rejalashtirish va nazorat qilish bo'yicha umumiy huquqiy va institusional mexanizm sifatida Hamdo'stlik samaradorligi tizimi (Commonwealth Performance Framework, CPF) faoliyat yuritadi. CPFning huquqiy asosi 2013 yilda qabul qilingan Davlat boshqaruvi, samaradorlik va hisobdorlik to'g'risidagi qonun (Public Governance, Performance and Accountability Act 2013) va unga muvofiq 2014 yilda qabul qilingan Davlat boshqaruvi, samaradorlik va hisobdorlik qoidalari (PGPA qoidasi) hisoblanadi.

GPF doirasida federal organlar uchun yagona standartlarga asoslangan rejalashtirish va hisobot berish tizimi shakllantirilgan. Xususan, vazirlik va agentliklarga har moliyaviy yilda Korporativ reja (Strategic Corporate Plan) va Yillik samaradorlik hisobotini (Annual Performance Statement) tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Budjet jarayoni "clear line of sight" tamoyili orqali amalga oshiriladi, bunda vazirlik va idoralarning budjet so'rovi, korporativ rejasi va yillik hisoboti bir-biri bilan muvofiq va bog'liq bo'lishi kerak.

Korporativ reja vazirlik va idoralarning o'rta muddatli istiqboldagi (4 yillik davr) strategik yo'nalishlarini belgilaydigan asosiy rejasi hisoblanadi. Korporativ rejalar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning minimal talablari



PGPA qonuni hamda PGPA qoidasida belgilangan. Qonunda moliyaviy yil asosida hisobot beradigan idoralar korporativ rejalarini har yili 31 avgustgacha o'z veb-saytida e'lon qilishi belgilangan.

Fransiyada strategik rejalashtirish markazlashgan holda amalga oshiriladi va Bosh vazir huzuridagi Strategiya va rejalashtirish bo'yicha Oliy komissiya (Haut-commissariat à la Stratégie et au Plan) tuzilmasi tomonidan boshqariladi. Mazkur organga strategik va istiqbolli tadqiqotlar o'tkazish, idoralararo rejalashtirish sa'y-harakatlarini hamda manfaatdor tomonlar (ijtimoiy hamkorlar, ekspertlar) keng ishtirokini muvofiqlashtirish yuklatilgan. Barcha strategik hujjatlar milliy va sohaviy darajada ishlab chiqiladi va jamoatchilik muhokamasiga qo'yiladi. Bunda inklyuzivlik-strategik rejalashtirishning muhim tamoyili hisoblanib, asosiy strategiyalarni ishlab chiqishda an'anaviy tarzda fuqarolik jamiyati va biznes vakillari jalb qilinadi. Monitoring va nazorat Fransiya Senati va maxsus komissiyalar, auditorlar (Cour des comptes) hamda jamoatchilik tinglovlari orqali amalga oshiriladi.

Fransiya davlat boshqaruvida natijadorlikni oshirish va budget xarajatlarining samaradorligini ta'minlashga qaratilgan strategik rejalashtirish va dasturiy budjetlashtirish tizimi 2001 yilda qabul qilingan Moliyaviy qonunlar to'g'risidagi organik qonun (Loi organique relative aux lois de finances – LOLF) bilan tartibga solinadi. Ta'kidlash joizki, Strategik rejalashtirishning yagona tartibi belgilanmagan bo'lib, LOLF qonuniga muvofiq vazir o'z idorasining missiyasi va erishilishi lozim bo'lgan strategik maqsadlarini aniq belgilaydi.

Kanada joriy etilgan strategik rejalashtirish tizimi davlat siyosatining maqsadlari, budget dasturlari va natijadorlik ko'rsatkichlari o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlovchi ilg'or model hisoblanadi. Federal budget mablag'larini oluvchi barcha vazirlik va agentliklar faoliyati tegishli me'yoriy-huquqiy xujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Xususan, federal darajadagi moliyaviy boshqaruvning umumiy qoidalari Moliyaviy boshqaruv to'g'risidagi qonun (Financial Administration Act) [12] asosida belgilanadi. Mamlakatda Natijalarga asoslangan siyosat (Policy on Results, 2016) [13] doirasida davlat organlarida natijaga asoslangan boshqaruv tizimi joriy etilgan. Natijalar bo'yicha Nizom (Directive on Results, 2016) da federal vazirliklarning strategik rejalashtirish asoslari, jumladan strategik rejalar va hisobotlar tayyorlashga oid talablar belgilangan. Mazkur Nizomga muvofiq vazirlik va idoralar tomonidan vazirlikning Strategik rejasi (Departmental Plan) va Yillik natijadorlik hisoboti (Departmental Results Report) ishlab chiqiladi. Departmental Plan vazirlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ustuvorliklar, ajratilgan budget mablag'lari va kutilayotgan natijalarni o'z ichiga olgan uch yillik o'rta muddatga mo'ljallangan strategik reja hisoblanadi.

Janubiy Afrika Respublikasida davlat boshqaruv tizimida strategik rejalashtirish milliy maqsadlarni amalga oshirish va resurslarni samarali taqsimlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu tizimning asosini uzoq muddatli strategiya vazifasini bajaradigan 2030 yilgacha mo'ljallangan Milliy rivojlanish rejasi (NDP 2030) tashkil etadi. NDP 2030 rejasi besh yillik muddatga mo'ljallangan O'rta muddatli strategik doira (Medium-Term Strategic Framework, MTSF) [14] vositasida amalga oshiriladi. MTSFning vazifasi hokimiyatning barcha bosqichlari harakatlarining muvofiqligi va samaradorligini ta'minlashdan iborat. JARning "Davlat moliyasini boshqarish to'g'risida"gi qonuni (PFMA 1999) ga muvofiq har bir vazirlik va idora tomonidan har yili besh yillik Strategik reja va hamda Yillik samaradorlik reja (Annual Performance Plan, APP) larini ishlab chiqishlari belgilangan. Mazkur rejalar NDP/MTSF bilan muvofiqlashtirilib, maqsadlar, natijalar va ko'rsatkichlar batafsil yoritiladi.

Qozog'iston Respublikasida strategik rejalashtirish tizimi aniq ierarxik tuzilma, budget bilan uzviy bog'liqlik, natijaga yo'naltirilganlik va shaffoflik tamoyillariga asoslangan. Mazkur tizim «milliy strategiya → davlat dasturi → vazirlik rejasi» darajalaridan boshlanib, mantiqiy izchillikni ta'minlaydi.

Qozog'iston Prezidenti huzurida tashkil qilingan Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi (ASPR) [15] davlat rejalashtirish tizimidagi markaziy bo'g'in hisoblanadi. Agentlikka strategik rejalashtirish sohasidagi davlat siyosatini ishlab chiqish, strategik rejalarining amalga oshirilishini nazorat qilish va baholash vazifasi yuklatilgan. Agentlik o'z tarkibiga kiruvchi Milliy statistika byurosi orqali statistika sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish funksiyasini ham bajaradi. Strategik rejalashtirishda kelajak tendensiyalarini tahlil qilish (foresight) usullari qo'llaniladi va ASPR idoralararo ishlarni, muhokamalarini va rejalashtirish jarayonini raqamlashtirishni muvofiqlashtiradi.

Qozog'iston Respublikasining 2017 yil 29 noyabrdagi "Qozog'iston Respublikasida davlat rejalashtirish tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 790-son qarori [16] mamlakatni barqaror rivojlantirishga qaratilgan strategik va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va amalga oshirishning kompleks mexanizmi hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda Avstraliya, Kanada, JAR, Qozog'iston mamlakatlari tanlangan vazirliklarining strategik rejasi taqqoslama jadvali keltirilgan.



1- Jadval. Turli mamlakatlar tanlangan vazirliklarining strategik rejasi

AVSTRALIYA	KANADA	JANUBIY AFRIKA RESPUBLIKASI	QOZOG'ISTON
Ta'lim vazirligining Korporativ rejasi (Corporate Plan) [17]	Bandlik va ijtimoiy rivojlanish vazirligi (Employment and Social Development Canada, ESDC)	Ijtimoiy rivojlanish vazirligi Strategik rejasining tuzilmasi	Maorif vazirligining 2023-2027 yillarga mo'ljallangan rivojlanish Rejasi[18]
Missiya (Purpose)	Rejaning kirish qismi (From the Ministers)	<i>A-qism: Vazirlikning mandati. Vazirlikning konstitusion, qonunchilik va siyosiy mandatlar (Legislative and Policy Mandates)-vazirlik vakolatlar va funksiyalarining rasmiy asoslanishi</i>	1 bo'lim. Missiya va uzoq muddatli istiqbolni ko'rish. Vazirlik missiyasi; Vazirlikning uzoq muddatli istiqboli.
Operasion muhit (Operating Context)	A'lo darajada xizmat ko'rsatish (Service Excellence)	<i>V-qism: Strategik kontekst. Vazirlikning uzoq muddatli istiqboli; Vazirlik missiyasi; Qadriyatlar; Strategik yo'nalishlar MTSF va NDP 2030 doirasida belgilangan; Muhitni tahlil qilish (Situational Analysis); Tashqi muhit tahlili; Ichki muhit tahlili; Sektor muammolari tahlili; Statistik tahlil.</i>	2 bo'lim. Strategik va budget rejalashtirish o'rtasidagi munosabatlar arxitekturasini. Uzoq muddatga mo'ljallangan mamlakatning iqtisodiy rivojlanish Strategiyasi, Mamlakatning Strategik rivojlanish rejalari; Davlat dasturlari; Vazirlikning strategik rejalari.
Hamkorlik va kooperatsiya (Partnerships and Cooperation)	Asosiy faoliyat yo'nalishlari va ichki xizmatlarni bajarish bo'yicha rejalari.	S-qism: Samaradorlikni o'lchash Maqsadlar va natijalar (Outcomes and Outputs); Natijalar bilan bog'liq asosiy xavf-xatarlar; Davlat tashkilotlari samaradorligi.	3 bo'lim. Strategik yo'nalishlar, maqsadlar va maqsadli ko'rsatkichlar. Strategik yo'nalishlar; Maqsadli ko'rsatkichlar (Makroindikatorlar); Vazirlikning strategik maqsadi; Budget dasturlari bilan bog'liq maqsadli ko'rsatkichlar.
Xavflarni boshqarish va nazorat qilish (Risk oversight and governance)	Asosiy faoliyat yo'nalishlari;	<i>D-qism: Indikatorlarning texnik tavsifi (TID) TID qismidagi har bir indikator tegishli bandlar bo'yicha batafsil tavsiflanadi</i>	4 bo'lim. Resurslar. Moliyaviy resurslar; Inson resurslari.
Qo'llab-quvvatlovchi/ ta'minlovchi imkoniyatlar (Enabling Capabilities)	Kutilayotgan natijalari;		
Samaradorlik (Performance)			
Манба: Муаллифлар томонидан тайёрланган			



XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat boshqaruvi tizimida strategik rejalashtirish davlatning o'rt va uzoq muddatli maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi.

Ushbu maqolada ilg'or xalqaro tajriba (Avstraliya, Fransiya, Kanada, Janubiy Afrika, Qozog'iston) tahlil qilinib, XVJ, IHTT va boshqa xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini hisobga olgan holda O'zbekistonda vazirlik va idoralarda strategik rejalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan quyidagii takliflar ishlab chiqildi:

1. Strategik hujjatlarni ishlab chiqishning yagona atamaları va tartib-qoidalarini belgilaydigan «Strategik rejalashtirish to'g'risida»gi qonunni qabul qilish maqsadga muvofiq (qonun loyihasi SRA tomonidan ishlab chiqilgan). Mazkur qonun strategik hujjatlar ierarxiyasi, muddatlar, va mas'ullarni belgilab, ularning budjet bilan bog'liqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

2. XVJ va IHTT[19] tavsiyalariga muvofiq strategik rejalashtirishda tahlil bosqichini chuqurlashtirish va tizimlashtirish, jumladan, vazirlik rejasida belgilangan maqsadlarga erishishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan makroiqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik omillarni baholash (PESTLE-tahlili) hamda SWOT tahlili usullaridan foydalanish. Bu usullar vazirliklarga nafaqat hozirgi tashqi omillarni baholash, balki yanada barqaror strategiyalarni ishlab chiqish orqali kelajakdagi ehtimoliy muammolar va imkoniyatlarni oldindan ko'ra bilish imkonini beradi.

3. Vazirlikning strategik vazifalarini amalga oshirish uchun idoraning ichki salohiyatini (inson resurslari, IT-infratuzilma, moliyaviy imkoniyatlar) tizimli baholash maqsadida o'rganilgan davlatlarda qo'llaniladigan standartlashtirilgan usullardan foydalanish, resurslarni yanada samarali taqsimlash imkonini beruvchi takrorlanuvchi funksiyalar, samarasiz jarayonlar va optimallashtirish sohalarini aniqlash uchun muntazam ravishda funksional tahlil o'tkazish.

4. Mamlakatimizda strategik maqsadlarga erishish monitoringi ochiq va doimiy olib borilishi uchun yagona raqamli platforma (masalan, Kanadaning GC InfoBase platformasi, Avstraliyaning "Transparency portal[20]" va "Performance dashboard[21]" tizimlari) yoki ommaviy hisobot portalini yaratish, statistik ma'lumotlarni standartlashtirilgan tarzda to'plash hamda yagona iqtisodiy hamda ijtimoiy ko'rsatkichlar tizimini joriy etish (xalqaro tahlil markazlari tajribasiga asoslanib).

5. Halqaro moliya institutlarining davlat siyosatining barqarorligi va ijtimoiy yo'naltirilganligini oshirishga qaratilgan tavsiya va yo'riqnomalariga muvofiq o'rganilgan davlatlarda Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) vazirliklarning strategik rejalariga kiritish (UNDP "SDG Budget Tagging" [22]), ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini (ESG - Environmental, Social, Governance) tarmoqni rejalashtirishga integrasiyalash (WB "Sustainable Finance" [23]), vazirlik siyosatini gender va ijtimoiy inklyuzivlik nuqtai nazaridan baholash (UNDP "Gender-Responsive Budgeting", GRB[24]) kabi amaliyotlar qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Strategic planning and management in governmental and private sector in latvia comparative analysis and opportunities for improvemen https://www.researchgate.net/publication/279444637_STRATEGIC_PLANNING_AND_MANAGEMENT_IN_GOVERNMENTAL_AND_PRIVATE_SECTOR_IN_LATVIA_COMPARATIVE_ANALYSIS_AND_OPPORTUNITIES_FOR_IMPROVEMENT
2. Strategic Planning for Public and Nonprofit Organizations A Guide to Strengthening and Sustaining Organizational Achievement 6th Edition https://www.researchgate.net/publication/382254675_Strategic_Planning_for_Public_and_Nonprofit_Organizations_A_Guide_to_Strengthening_and_Sustaining_Organizational_Achievement_6th_Edition
3. <https://www.eajournals.org/wp-content/uploads/Strategic-Planning-Best-Practices.pdf>
4. <https://www.pempal.org/knowledge-product/general-guidance-linking-strategic-planning-and-budgeting>
5. <https://www.mdpi.com/2076-3387/9/4/80#B45-admsci-09-00080>
6. https://scholars.csus.edu/esploro/outputs/graduate/Strategic-planning-in-the-public-sector/99257830826101671#files_and_links
7. https://www.researchgate.net/publication/271849857_A_REVIEW_OF_STRATEGIC_PLANNING_MODELS_DEVELOPED_OVER_THE_PAST_50_YEARS_AND_THEIR_EFFECTIVENESS_IN_PUBLIC_SECTOR_ORGANIZATIONS
8. Strategic planning and management in governmental and private sector in latvia comparative analysis and opportunities for improvemen https://www.researchgate.net/publication/279444637_STRATEGIC_PLANNING_AND_MANAGEMENT_IN_GOVERNMENTAL_AND_PRIVATE_SECTOR_IN_LATVIA_COMPARATIVE_ANALYSIS_AND_OPPORTUNITIES_FOR_IMPROVEMENT
9. https://www.researchgate.net/publication/358182801_Strategic_Planning_in_Public_Sector_Organizations
10. <https://www.elibrary.imf.org/downloadpdf/display/book/9798400223488/CH003.pdf>



11. Балансланган кўрсаткичлар тизими ташкилот стратегиясининг амалга оширилишини кузатиш ва ташкилотдаги энг кам самарали бўғинларни аниқлаш имконини беради.
12. <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/f-11/>
13. <https://www.tbs-sct.canada.ca/pol/doc-eng.aspx?id=31300>
14. <https://www.treasury.gov.za/publications/guidelines/sp%20app%20framework.pdf>
15. <https://www.gov.kz/memleket/entities/aspr/about?lang=ru>
16. Постановление Правительства Республики Казахстан от 29 ноября 2017 года № 790. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/P1700000790>
17. <https://www.education.gov.au/about-department/corporate-reporting/corporate-plan>
18. <https://www.gov.kz/memleket/entities/edu/documents/details/597283?lang=ru>
19. https://www.oecd.org/en/publications/foresight-toolkit-for-resilient-public-policy_bcdd9304-en.html
20. <https://www.transparency.gov.au/>
21. <https://www.dta.gov.au/help-and-advice/digital-service-standard/assessment-reports/performance-dashboard-beta-assessment>
22. <https://www.undp.org/publications/dfs-sdg-budget-tagging-proposal-measure-sdg-financing>
23. <https://www.worldbank.org/en/topic/financialsector/brief/sustainable-finance>
24. https://eca.unwomen.org/sites/default/files/2025-02/1-resource_pack_national_level_module-3.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>